

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI SHAHRISABZ
FILIALI**

HAMRAYEV JAVLONBEK HOSHIM O'G'LI

**TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
TALABALARGA INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI**

(“Texnologik ta’lim” bakalavriat ta’lim yo’nalishi misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание диссертации доктора философии (PhD) и педагогических
наук**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Hamrayev Javlonbek Hoshim o'g'li

Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini
o'qitish metodikasi..... 3

Хамраев Жавлонбек Хошим угли

Методика преподавания студентам информатики посредством
телекоммуникационных технологий..... 23

Khamrayev is the son of Hoshim Javlonbek

Methods of teaching 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok opublikovannых rabot
List of published works..... 48

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI SHAHRISABZ
FILIALI**

HAMRAYEV JAVLONBEK HOSHIM O'G'LI

**TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA
TALABALARGA INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI**

(“Texnologik ta’lim” bakalavriat ta’lim yo’nalishi misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4216 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ernazarova Gulnora Oblaqulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mamatov Alisher Zulunovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "___" _____ kuni soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; ye-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

J.E.Usarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.M.Maxmudova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d., dosent

R.A.Eshchanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning telekommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar hamda AQSh, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, Malayziya, Sengapur xalqaro tashkilot va davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yillargacha yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat", deb e'tirof qilingan. Bu borada informatikadan ta'lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib (Microsoft Visual J++, Web service) kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar amaliyotga tatbiiq etilmoqda. Dunyo hamjamiyatida yetuk mutaxassislar tayyorlash hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanish indeksi (ICT Development Index)ni oshirish, ta'lim sifat darajasini yangi bosqichga ko'tarish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatikadan o'quv natijalarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, ta'limda telekommunikatsiya texnologiyalarini tatbiiq qilish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarning motivasion-qadriyatli, tashkiliy-mazmuniiy, kognitiv-operasion, shaxsiy-refleksiv kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiiy, tuzilmaviiy modulini takomillashtirish, zamonaviiy dasturiiy vositalarni ta'lim jarayoniga keng tatbiiq etish, talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir talabaga alohida moslasha oladigan telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib informatika o'qitishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, informatika o'qitishda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish, talabalar ishtirokida pedagogik dasturiiy mahsulotlar ishlab chiqishning me'yoriy asoslari va moddiiy texnika bazasi yaratildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoniga asosan "2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqoro reytinga kirishga maqsadli tayyorlash, 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini kamida 50 taga yetkazish"¹ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada dasturiiy injiniring mutaxassisligiga xos sifatlarni va kasbiy kompetensiyalar komponentlarini rivojlanganlik darajalarini baholash metodikasini ishlab chiqish ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сонли Фармони.
<http://lex.uz/uz/docs/5841063>

chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarorlari hamda mazkur faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu Dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim muassasalarida informatika ta'limining rivojlanish jarayoni, qonuniyatlari va tendensiyalari hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari A.A.Abdushukurov, A.Abdulloqodirov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, N.A.Muslimov, N.D.Mamatov, Sh.Q.Formonov va boshqa mahalliy pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha M.Aripov, R.R.Boqiyev, U.Sh.Begimqulov, M.E.Mamarajabov, S.Tursunov, M.Lutfullayev, M.Fayzullayeva, N.Qayumova, B.Yu.Suropov, O.X.Turakulovlar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

Bo'lajak o'qituvchilarga informatikadan ta'lim berishda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muammolari va informatikadan ta'lim berish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha MDH olimlaridan E.D.Patarkin, V.A.Slastenin, S.D.Smirnov, I.V.Robert, V.M.Glushkova, V.I.Grisenko, Yu.G.Danilev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan B.K.Atrostic, S.V.Nguyen, E.Brynjolfsson, A.Mcafee, C.B.Frey, M.A.Osborne, L.E.Varshavski va boshqalar oliy ta'lim tizimida informatika o'qitishda telekommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muammolarini tadqiq qilishgan.

Tadqiqotning Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ilm-fan va innovatsiyalarini 2026 yilga qadar rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari" vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini o'qitishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida bo'lajak o'qituvchilarga informatika o'qitishning pedagogik-psixologik aspektlarini tahlil etish, axborot-didaktik ta'minotini mazmunan rivojlantirish;

telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o'qitishni modellashtirish, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanidan ta'lim berishda telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish;

texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini zaruriy kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalarini baholash mexanizmini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim muassasalarida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib talabalarga informatika o'qitish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib talabalarga informatika o'qitishning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari: nazariy, psixologik, pedagogik, tabiiy-ilmiy (informatika), umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlariga doir adabiyotlarni tadqiqot muammosi va fanlararo uzviylik nuqtai nazaridan o'rganish, tahlil qilish, malaka talablari tahlili, empirik: kuzatish, suhbat; statistik: so'rovnoma o'tkazish, pedagogik tajriba-sinovi va matematik-statistika metodlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib informatika o'qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minoti mazmuni differensial professiogrammani ishlab chiqish, dasturiy apparatga ustuvorlik berish, informatsion, kasbiy, tizimli-axborotli, grafik, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash hamda tizimli, faoliyatli, kompetentli yondashuvlar asosida takomillashtirilgan;

telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatika o'qitishning substansial, tuzilmaviy, funksional va konseptual modellariga asoslangan metodik modeli maqsad, mazmun, texnologik jarayondan natijaga yo'naltirilgan komponentlar uzviylikida tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, mavzuiy-didaktik shart-sharoitlarni pedagogik-strategik ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatikadan ta'lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi Java dasturlash tilida informatikaga doir texnik va pedagogik dasturiy mahsulotlar yaratish, motivatsion-qadriyatli, refleksiv mezonlarni reproduktiv, kasbiy interaktiv kurslar metodikasiga muvofiqlashtirish hamda mazmunan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari informatika o'qitishda foydalaniladigan telekommunikatsiya texnologiyalarini mutaxassislik kasbiy va pedagogik professiogrammasining barqaror tendensiyalariga refleksiv moslashtirish hamda baholashning telekommunikatsion mobil ilovasini ishlab chiqish natijasida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib informatika o'qitishga tayyorlashga va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodlaridan samarali foydalanilgan va telekommunikatsiya vositalari ustuvorligini ta'minlagan holda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Axborot texnologiyalari (ma'ruza matnlari va laboratoriya ishlari)" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatika fanini o'qitish orqali kasbiy kompetensiyalari komponentlarini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan, shu bilan birga, telekommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanib informatika o'qitishning metodik modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan, bo'lajak o'qituvchilarni telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kompetensiyalari komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan "Informatika" fani uchun dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. "Texnologik ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o'qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik asoslari mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuniga hamda mazkur muammo bo'yicha respublikamiz va xorijiy pedagog-tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy g'oyalariga asoslanilganligi; tadqiqot metodlarining tadqiqot vazifalariga mos ravishda tatbiq etilganligi; ilgari surilgan ilmiy g'oyalarning o'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridagi ijobiy ko'rsatkichlari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'tkazilgan tadqiqotning ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari "Texnologik ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o'qitish metodikasini takomillashtirilganligi, talabalar ishtirokida pedagogik dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilganligi va ta'lim jarayoniga tatbiq etilganligi, ilmiy-tadqiqotlar hamda tajriba-sinov ishlari natijalarini qayta ishlashda dasturiy vositalardan foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati informatika fanlararo uzviylikda o'qitish orqali telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o'qitishning metodik modeli ishlab chiqilganligi, "Axborot texnologiyalari" fanidan telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir ma'ruza mashg'uloti uchun o'quv qo'llanma ishlab chiqilganligi, dasturlash tillarida informatikaga oid pedagogik dasturiy mahsulotlar yaratilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan asosiy taklif va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni informatikaga bo'lgan qiziqishlarini, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda hamda jamiyatga yuqori malakali kadrlar yetkazib berishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika o'qitish metodikasi yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib informatika o'qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minoti mazmuni differensial professiogrammani ishlab chiqish, dasturiy apparatga ustuvorlik berish, informatsion, kasbiy, tizimli-axborotli, grafik, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash hamda tizimli, faoliyatiy, kompetentli yondashuvlar asosida takomillashtirishga oid takliflar "Axborot texnologiyalari (ma'ruza matnlari va laboratoriya ishlari)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 25 noyabr 2022 yildagi 388-sonli buyrug'i, 388-311 raqamli guvohnoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazining 13 yanvar 2023 yildagi 02/01-01-129-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatika o'qitishning substansial, tuzilmaviy, funksional va konseptual modellariga asoslangan metodik modeli maqsad, mazmun, texnologik jarayondan natijaga yo'naltirilgan komponentlar uzviyligida tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, mavzuiy-didaktik shart-sharoitlarni pedagogik-strategik ta'minlash asosida takomillashtirishga oid takliflardan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida 2019-2022 yillarda bajarilgan 609715-EPP-1-2019-1-UZ-EPPKA2-CBNE-JP "SPACECOM: "Koinot tizimlari va aloqa muhandisligi bo'yicha yangi o'quv dasturi" ("New study program in space systems and communications engineering") mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialining 2023 yil 10 yanvardagi 19-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan modeldan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatikadan ta'lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini hamda talabalarda kasbiy sifatlarini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlarini takomillashtirishga oid takliflardan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida 2019-2021 yillarda bajarilgan №1/1-F-"Sanoat korxonalarining atrof muhitga ta'sirini majmuaviy monitoringini ishlab chiqishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" nomli loyihada foydalanilgan (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialining 2023 yil 10 yanvardagi 20-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan metodika va baholash mezonlari bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, OAK tomonidan doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta shundan 2 tasi xorijiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, Dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga infarmatika fanini o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tarmoq texnologiyalaridan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik asoslari, ilmiy-metodologik asoslari, shu bilan birga tarmoq texnologiyalaridan infarmatika o'qitishda foydalanish keltirib o'tilgan.

Kompetentlik, kompetensiya haqida qator ilmiy-tadqiqot ishlar olib borilgan hamda olimlar tomonidan turli yondashuvlari keltirib o'tilgan. S.D.Smirnov pedagogik kompetensiya pedagogik faoliyat subyekti sifatidagi o'qituvchining kommunikativ, konstruktiv, tashkilotchilik va gnostik ko'nikmalari yig'indisi, uning bu ko'nikmalardan pedagogik faoliyatda amaliy foydalanish qobiliyatidir.

V.A.Slastenin o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi. Pedagogik kompetensiya bo'lajak o'qituvchilarni o'z mutaxassisligi bo'yicha egallagan bilimi, ko'nikmasi, malakasi, shaxsiy sifat va fazilatlari majmui. Pedagogik kompetentlik bu bo'lajak o'qituvchini shakllangan kompetensiyalarini pedagogik faoliyatda qo'llay olishidir.

Ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan kompyuter texnologiyalarining samarali tomonlari ta'kidlangan: kompyuter bilan ishlashning yangiligi o'quvchilarda u bilan ishlashga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va o'qishga bo'lgan motivasiyani oshiradi; animasiya, musiqa, ovozli nutq axborotni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi; kompyuter o'quvchi modeli asosida uning o'rganish tarixi va xotira, idrok, tafakkurning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda individual ta'limni qurish imkonini beradi; kompyuter yordamida shaxsiy muloqot uslubini amalga oshirish mumkin, bu esa qulayroq muhitni yaratadi - bu, ayniqsa, past o'zlashtiruvchilar uchun muhimdir; kompyuter o'quv jarayonini faollashtiradi; kompyuter hodisa va jarayonlarni vizuallashtirish imkoniyatini beradi.

Telekommunikatsiya texnologiyalari deganda “texnik vositalar (telefon, telegraf, radio, televideniya va boshqalar) yordamida ma’lumotlarni masofaga uzatish tushuniladi. Pedagogik amaliyotda telekommunikatsiyalar haqida gap ketganda, ular ko’pincha an’anaviy telefon liniyalari yoki sun’iy yo’ldosh aloqalari orqali kompyuter vositalari (modem yordamida) orqali ma’lumotlarni uzatish, qabul qilish, qayta ishlash va saqlashni anglatadi-bu kompyuter telekommunikatsiyalaridir.

Kompyuter kommunikasiyasini joriy etish boshqa vositalaridan foydalanish bilan birlashtirilganda va keng ko’lamli metodologik va tashkiliy-pedagogik innovasiyalarni qo’llab-quvvatlash (hamkorlikdagi guruhlarda ishlash, loyiha ishi, baholashning muqobil metodlari) natijalar samarali bo’ladi.

Telefon kommunikatsiyasi bilan ta’lim tarmog’idan foydalanish varianti boshqa turdagi ulanishlarga nisbatan muhim afzalliklarga ega. Ammo shu bilan birga, ushbu turdagi ulanishdan foydalanish faqat pochta yozishmalari va exo-konferensiyalarni (ya’ni, oflayn rejimda tarmoq konferensiyalarini) amalga oshiriladi, bu esa tarmoqni o’rganish jarayonini juda qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, tarmoq dasturiy ta’minotini o’rnatishda juda jiddiy qiyinchiliklar mavjud. Shularni hisobga olib, kompyuter kommunikatsiya metodlarini keltirib o’tamiz: port orqali ulanishlar (modem, infraqizil nur); tarmoq kartasi orqali ulanish (bir rangli, iyerarxik); telefon kanali orqali (vositasiz). Global tarmoq xizmatlariga quyidagilar kiradi: elektron pochta, global tarmoq (www), konferensiyalar (UseNet), fayllarni uzatish (FTP), ma’lumotlar bazasi, boshqalar (TelNet, WAIS).

“Ta’limda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari” tushunchasi bilan bir qatorda “telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kadrlar tayyorlashga kasbiy tayyorlik” tushunchasi asosiy hisoblanadi.

O’qituvchining axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga tayyorligining bir qismi bo’lgan bevosita motiv - bu bolalarni mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan (masalan, internetdan) pedagogik jarayonni qo’llab-quvvatlashning muhim didaktik vositasi sifatida o’qitishga qiziqish deyish mumkin. Bu qiziqish texnologiya o’qituvchisi shaxsi yo’nalishining asosiy mazmunidir.

Bo’lajak o’qituvchining kompyuter telekommunikatsiyalari va axborot texnologiyalari sohasidagi metodik tayyorgarligi, uning kasbiy tayyorgarligining komponenti sifatida; ta’lim jarayonini ta’minlashning didaktik vositasi sifatida kompyuter telekommunikatsiyalaridan foydalangan holda o’qitish metodikasi sohasidagi bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishni nazarda tutadi.

Bo’lajak o’qituvchini quyidagi ko’nikmalarga ega bo’lishiga alohida e’tibor qaratamiz: maktab o’qituvchilarini o’qitishda kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayoni va natijasini bashorat qilish bilan bog’liq gnostik ko’nikmalar; axborot ko’nikmalari - o’quv ma’lumotlarini olish va to’g’ridan-to’g’ri taqdim etish usullari bilan bog’liq; loyiha ko’nikmalari – o’qitish va tarbiyaning aniq rejalarida pedagogik prognozlash natijalarini moddiylashtirishda namoyon bo’ladigan ko’nikmalar; kommunikativ ko’nikmalar - o’qituvchining muloqot qilish qobiliyati va malakasi, o’qituvchi va talabalar, boshqa o’qituvchilar o’rtasida aloqalarni o’rnatish, shuningdek, pedagogik muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan ushbu muloqotning samaradorligi. Bolalarda muloqot qobiliyatlarini shakllantirish uchun o’qituvchining o’zi muloqot qobiliyatiga ega bo’lishi kerak;

rivojlantiruvchi ko'nikmalar-o'qituvchining bu ko'nikmalari juda muhim, chunki o'qitishning vazifalaridan biri hamisha o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdan iborat; yo'naltiruvchi ko'nikmalari-o'rta maktabda kasbiy yo'nalishni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya fani o'qituvchisini o'quv jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tayyorlash natijasiga qo'yiladigan asosiy talablar differensial professiogrammada aks ettiriladi, uning tuzilishi uning kasbiy tayyorgarligi tarkibiga mos keladi va quyidagi umumiy shaklga ega bo'ladi: yo'naltirilganlik (kasbiy faoliyat sohasiga qiziqish, jismoniy fazilatlar), ta'limiy (maxsus, metodik)

Ushbu professiogrammani texnologiya o'qituvchisining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganishga tayyorligi ko'rsatkichlari tizimi sifatida qarash mumkin. Ushbu professiogramma bo'lajak texnologiya o'qituvchisining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun universal zamonaviy didaktik vosita sifatida foydalanishga tayyorligini shakllantirishning o'rganilayotgan jarayonining maqsadli, mazmuni va jarayoniy xususiyatlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz tomonidan tuzilgan professiogrammada uning shaxsiyati yo'nalishining maxsus ko'rsatkichi sifatida maktab o'quvchilarini kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishga doimiy qiziqish mavjud. Bunday qiziqishning mavjudligi va uning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra, mos ravishda bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatining yo'nalishi xususiyatlariga baho beriladi. Tarmoq texnologiyalaridan foydalanishga qiziqishning namoyon bo'lish darajasi bu holda kasbiy yo'naltirilganlik holatining mezoni hisoblanadi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligini yanada rivojlantirish, uning asosi kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qishga bo'lgan qiziqish bo'lishi kerak bo'lgan asosiy vazifasi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat bo'lgan fanlarni o'rganish jarayonida amalga oshirilishi mumkin. "Texnik va audiovizual o'qitish vositalari" kursi, bizningcha, pedagogika fakulteti talabalarida axborotdan, xususan, kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik ko'p darajada shakllantiriladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib informatika o'qitish orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning uslubiy-didaktik ta'minoti rivojlantirildi: "Axborot texnologiyalari" fanidan elektron majmua, "Axborot texnologiyalari", "Informatika va axborot texnologiyalari", "Raqamli qurilmalarni loyihalashga kirish" nomli elektron pedagogik dasturiy vositalar ishlab chiqildi, "Axborot texnologiyalari (ma'ruza matnlari va laboratoriya ishlari)" o'quv qo'llanmasi nashr etildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi.

V.A.Slastenin tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik ta'lim kontseptsiyasida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash muammosini majmuaviy hal etishga alohida e'tibor qaratgan. Ushbu konsepsiya o'qituvchi shaxsini shakllantirishning butun jarayonini qurish va faoliyat yuritishini ta'minlaydigan tizimli, madaniy, faoliyatli, individual-ijodiy kabi metodologik yondashuvlar asosida quriladi. Bizning tadqiqotimizda tizimli, faoliyatli, kompetentli yondashuvlar asosida informatika o'qitish amalga

oshirildi. Tizimli yondashuv-bu ilmiy bilimlar va ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo‘nalishi bo‘lib, u obyektlarni tizim sifatida ko‘rib chiqishga asoslanadi. Tizimli yondashuvdan foydalanish o‘rganilayotgan jarayonlarni tizimlar shaklida taqlid qiluvchi pedagogik modellarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi, bu ularning ishlash qonuniyatlari va samarali tashkil etish tamoyillari haqida bilim olishga imkon beradi. Pedagogikada faoliyatli yondashuv: shaxs faoliyatda shakllanadi va namoyon bo‘ladi, shuning uchun talabaning faoliyatini tanlash va tashkil etish, uni faollashtirish va subyekt yondashuviga o‘tkazish uchun alohida bilim, mehnat talab etiladi. Kompetentli yondashuv: jadal rivojlanayotgan yuqori texnologiyali jamiyat va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitida ta‘lim tizimining ish beruvchilar talabiga javoblaridan biri kompetentlikka yo‘naltirilgan ta‘limdir.

Dissertatsiyaning **“Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini o‘qitish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o‘qitish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni modellashtirish, bo‘ljak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik kurslarini ishlab chiqish, shuningdek telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida informatika o‘qitish metodikasi keltirib o‘tilgan.

Konseptual model - bu alohida tuzilma bo‘lib, uning elementlari axborot maydonida iyerarxik tarzda eng past darajadan eng yuqori darajagacha joylashgan. Shu bilan birga, eng yuqori birlik quyi birliklarning oldingi barcha sifat belgilarini umumlashtirish natijasida olingan yagona sifat belgisini o‘zida sintez qiladi.

Biz bo‘ljak texnologik ta‘lim o‘qituvchilariga informatika o‘qitishning substansial, tuzilmaviy, funksional va konseptual modellariga asoslangan metodik modelni taklif etdik. Mazkur model to‘rtta o‘zaro bog‘langan komponentlardan iborat bo‘ldi: maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik natijaviy (1-rasm): maqsad komponenti ijtimoiy buyurtma va maqsadni o‘z ichiga oladi. Modelda bo‘ljak texnologiya o‘qituvchisining informatikadan ta‘lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi nazarda tutiladi; mazmun komponenti vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar va funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent bo‘ljak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini informatikadan ta‘lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishini nazariy jihatdan asoslaydi. Telekommunikatsiya texnologiyalari asosan Java dasturlash tilida ishlab chiqilgan ilovalar va saytlar orqali amalga oshiriladi; jarayon komponenti fanlar, rivojlantiruvchi kasbiy kompetensiyalar, shakllar, metodlar va vositalardan tashkil topgan. Bunda bo‘ljak texnologik ta‘lim o‘qituvchisiga informatika o‘qitish fundamental, umumkasbiy, ixtisoslik va maxsus fanlarni o‘qitish hamda pedagogik amaliyot jarayonlarida amalga oshiriladi. Mazkur komponent informatikadan ta‘lim jarayonini to‘liq o‘zida mujassamlashtiradi; diagnostik-natijaviy komponent pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari, tayyorgarlik darajalari va natijani qamrab olgan. Mazkur komponent yuqorida keltirilgan uchta komponentni to‘g‘ri amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, ishlab chiqilgan metodik model metodologik yondashuvlar, tamoyillar va funksiyalarni hisobga olgan holda uzviy algoritmik ketma-ketlikni saqlash natijasida ishlab chiqilgan bo‘lib nafaqat texnologik ta‘lim


yo'nalishi talabalariga informatika o'qitishda, balki boshqa yo'nalishlarga ham informatika o'qitishda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini bashoratlaydi. Metodik model maqsaddan natijaga yo'nalgan uzluksiz tizim sifatida qaralsa bo'lajak mutaxassisni tayyorlashda amalga oshirilgan algoritmik ketma-ketlikni izchil amalga oshirilishini talab qiladi. Modeldan foydalanib bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini informatikadan ta'lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanishga tayyorlik darajasiga qarab samarali ekanligi aniqlanadi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tasdiqlaydi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchisini telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning mazmunli komponentini aniqlab, biz ushbu jarayonni amalga oshirishning jarayoniy imkoniyatlari masalasiga yondashdik, shu sababli biz belgilangan o'quv kurslarini o'rganish ketma-ketligini belgilab oldik. Talabalarni o'z faoliyatida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tayyorlash mazmuni, bizning modelimiz bo'yicha, texnologiya o'qituvchisining asosiy va qo'shimcha ta'limining quyidagi fanlari bilan ifodalanadi: "Informatika" (tayanch o'quv rejasining tabiiy-ilmiy fanlari); "Axborot texnologiyalari" (tabiiy-ilmiy fanlar); psixologik-pedagogik yo'nalishdagi "Texnologiya va tadbirkorlikni o'qitish nazariyasi va metodikasi" va "Texnik va audiovizual o'quv vositalari" (o'quv rejasining umumkasbiy fanlari) fanlari; "Internet-ta'lim asoslari" (maxsus (tanlov) fan). Modelimizni qurishni yakunlash uchun tanlangan o'quv fanlarini o'rganish ketma-ketligini va ularning texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi o'rnini aniqlash kerak edi.

Ta'lim mazmunini belgilashda bo'lajak kompyuter telekommunikatsiya o'qitish texnologiyalaridan foydalanishda M.V.Shvetskiy tomonidan taklif qilingan ushbu sohada kadrlar tayyorlashning kasbiy-pedagogik yo'nalishi tamoyillariga tayandik: fundamentallik tamoyili, binarlik tamoyili, yetakchi g'oya tamoyili, uzluksizlik tamoyili, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish tamoyili, yangi axborot texnologiyalaridan tizimli foydalanish tamoyili.


Pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashda asosan fan dasturlari, o'quv rejalar, talablarni ishlab chiqish, rivojlantirish, o'quv-uslubiy ta'minotni mazmunan rivojlantirish nazarda tutiladi; pedagogik-psixologik shart sharoitlarga turli metodikalar ishlab chiqish va ta'lim tarbiya jarayoniga tadbiq etish, psixologik o'yinlar ishlab chiqish, tarbiyalanuvchilarning hissiy-emotsional va aqliy harakatlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ishlanmalar va texnologiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi; didaktik shart-sharoitlarga maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun o'quv qo'llanma va darsliklar, elektron uslubiy qo'llanmalar, didaktik o'yinlarning elektron variantlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Tadqiqotimizda "Informatika" fanidan ta'lim berish orqali talabalarning telekommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishga tayyorlash metodikasi ("SWOT-tahlil" metodini, SINDIKAT interfaol ta'lim metodini, SMART- interfaol ta'lim metodi) takomillashtirildi.



1-rasm. Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida bo'la'jak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatika o'qitishning metodik modeli

Maruza mashg'ulotlarini o'qitish asosida talabalarning kasbiy kompetentligini motivatsion-qadriyatli komponentini (talabalarga motivatsiya berish, mavzuni kengroq tushuntirish maqsadida) rivojlantirish maqsadida "SWOT-tahlil" metodini qo'lladik (2-rasm).



2-rasm. "SWOT-tahlil" metodi

Laboratoriya mashg'ulotlarni olib borishda "SINDIKAT" interfaol ta'lim metodini qo'llash orqali texnologik ta'lim o'qituvchilarini axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirildi va quyigacha amalga oshirildi: o'qituvchi dars mashg'uloti boshida dasturiy ta'minot haqidagi umumiy tushunchalarni beradi; talabalar kichik guruhlariga ajratadi topshiriqlar beriladi; topshiriqlarni bajarish uchun vaqt belgilanadi; kichik guruhlarning ishlari jamoa tomonidan o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va eng yaxshi ish aniqlanadi; o'qituvchi jamoa ichidan eng yaxshi ishni e'lon qiladi va yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

Natija: Talabalarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o'rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limda SMART- interfaol ta'lim metodi qo'llanildi. SMART – bu inglizcha akronim bo'lib, u maqsadni to'g'ri tushunib yetish va erishishga yordam beruvchi, o'ta samarali metod hisoblanadi. Maqsadingiz SMART bo'lishi uchun, siz quyidagi me'zonlarni shakllantirib, aniqlashtirib olishingiz kerak.

Umuman olganda informatikadan barcha ta'lim shakllarida kompyuter kommutatsiya metodidan foydalandik. Kompyuter kommutatsiya metodi 3-rasmda keltirilgan.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilariga informatikadan ta'lim jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi Java dasturlash tilida dasturiy mahsulotlar yaratish, individual ta'limni amalga oshirish jarayonlarini informatikadan mobil ilova ishlab chiqish asosida takomillashtirildi. Bu yaratilgan dasturiy mahsulotlarning boshqa ilovalardan farqi, ulardan online va offline rejimida bemalol foydalansa bo'ladi. Bu bo'lajak o'qituvchiga yangi texnologiyalarni istalgan vaqtda kiritish imkonini beradi. Mobil ilovaga fanning yangi ma'lumotlarini muntazam ravishda yangilab borish imkoni kiritib o'tilgan. Dastur Java dasturlash


Misol tariqasida Informatika fanidan Chiziqli dasturlarni yaratishda (Python yoki Java) dasturlash tilida amallar bajarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uning afzalliklari: kodni terish hajmi kamligida;

Kamchiliklari: interfeysida;

Imkoniyatlari: barcha sistemalarda ishlay olishi.

tilida bajarilgan, dasturdan foydalanish uchun bo'yicha yo'riqnoma sodda tarzda berilgan.



3-rasm. Kompyuter kommutatsiya metodlari

